

5/2022,  
sentyabr-  
oktyabr  
(№ 00061)



## TURIZM SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOBIL INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

**Erkayeva Gulbaxor Panjiyevna**

*Qarshi davlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, i.f.n.*  
[egulbahor@mail.ru](mailto:egulbahor@mail.ru)

**Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li**

*Qarshi DU Turizm va marketing kafedrasida o'qituvchisi.* [vayskulov97@mail.ru](mailto:vayskulov97@mail.ru)

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol10\\_iss5/a38](https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a38)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada turizm sohasida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati, ulardan samarali foydalanish yo'llari va o'zgarish dinamikasi o'rganilgan. Xalqaro reytinglardan foydalangan holda, sohani rivojlantirish uchun mobil texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiya, mobil texnologiya, turistik infratuzilma, axborot texnologiya, turistik ilovalar, mobil ilovalar, mobil operatsion tizim

### **Аннотация**

В данной статье рассматривается значение инновационных технологий в туризме, способы их эффективного использования и динамика изменений. С помощью международных рейтингов проанализированы возможности использования мобильных технологий для развития отрасли.

**Ключевые слова:** инновационные технологии, мобильные технологии, туристическая инфраструктура, информационные технологии, туристические приложения, мобильные приложения, мобильная операционная система.

### **Abstract**

This article examines the importance of innovative technologies in tourism, ways to use them effectively and the dynamics of change. Using international rankings, the possibilities of using mobile technologies to develop the industry were analyzed

**Key words:** innovative technology, mobile technology, tourism infrastructure, information technology, tourism applications, mobile applications, mobile operating system

### **Kirish**

urizm sohasi rivojlanishining hozirgi bosqichida axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minot muhim o'rin tutadi. Texnologik taraqqiyot turizm faoliyatiga shiddat bilan kirib bormoqda, xususan, GPS navigatsiyasidan foydalangan holda mobil telefonlar uchun noyob multimedia qo'llanmalari ishlab chiqilmoqda va sayyohlarga taklif etilmoqda. Turistik biznes

- tadbirkorlikning harakatlanuvchi yoʻnalishi hisoblanadi. Soha vakillari doimiy ravishda mijozlar bilan aloqada boʻlishlari, har qanday vaziyatni masofadan turib muvofiqlashtirishlari, har qanday savol va sharhlarga imkon qadar tezroq javob berishlari, soʻnggi daqiqalargacha ham sayohatlar va ekskursiyalar putyovkalarini taklif qilishga tayyor boʻlishlari kerak. Bunda turistik agentliklarga maxsus ishlab chiqilgan mobil ilovalar muhim yordamchi boʻladi.

Statistik maʼlumotlarga koʻra hozirgi kunda dunyoda sayohatchilarning qariyb 75 % i oʻzlarining marshrutlarini online platformalar orqali amalga oshirishni rejalashtirmoqdalar. Bunday platformalar misol sifatida Agoda, Booking.com va Airbnb kabilarni kiritish mumkin. Sayohat qilayotgan turistlarning 70 %idan ortigʻi ijtimoiy tarmoqlar orqali sayohatlarini boshqalar bilan boʻlishib borishadi. 35% atrofidagi turistik safarlar ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan maʼlumot va tavsiya qilingan manzillar orqali amalga oshirilmoqda<sup>1</sup>.

Shuni taʼkidlash kerakki, axborot tizimlarining rivojlanib borayotganiga qaramay, mamlakatimizning turizm sohasida mobil innovatsion texnologiyalardan foydalanish yetarli darajada emas. Turizm salohiyati yuqori boʻlgan xorijiy mamlakatlarda axborot va mobil texnologiyalar sohaning ajralmas qismi hisoblanadi. Turistik salohiyatni oshirish maqsadida IT dasturchilari tomonidan biznesni rivojlantirishda mobil texnologiyalarni moslashtirish va yaratish boʻyicha izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, “2019 — 2025 yillarda Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasida turizm sohasini rivojlantirish uchun zarur boʻlgan yangi xizmat turlarini innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish vazifasi belgilangan[1].

Kelajakda sayohatlarni amalga oshirish va bronlashtirishda mobil texnologiyalarning katta ahamiyatga ega boʻladi. Zamonaviy operatsion tizimga ega boʻlgan uyali aloqa vositalari sayyohlarga nafli boʻlgan dasturlar paketlari bilan birgalikda, ularning vaqti va xarajatlarini tejaydi, safarlarda beminnat dastyor boʻladi. Biroq, bugungi kunda mobil texnologiyalarni rivojlanishiga toʻsiq boʻlayotgan bir nechta omillarni koʻrsatish mumkin. Bular jumlasiga foydalanuvchilarning smartfonlardan toʻliq foydalanishni bilmasliklari va toʻlov tizimidagi murakkabliklar hamda infratuzilmani rivojlanmaganligini kiritish mumkin. Koʻpgina uyali aloqa egalari, ayniqsa katta yoshdagilar, telefonning ayrim funksiyalarini ishlata olmaydilar, undan faqat aloqa vositasi sifatida foydalanishadi. Bundan tashqari, elektron toʻlovlarni amalga oshirishdagi muammolar: xizmatni yoʻlga qoʻyilmaganligi, internet aloqasini yoʻqligi yoki tezligini pastligi, shaxsiy maʼlumotlar xavfsizligini taʼminlash bilan bogʻliq xavf-xatarlar, kiberjinoyat holatlarini mavjudligi kabi holatlarni mavjudligi mavzuning dolzarbligini koʻrsatadi.

Shu nuqtai nazardan, maqolada mamlakatimizning turizm salohiyatini oshirish, xorijiy va ichki turistlarni jalb etishni kuchaytirishda mobil innovatsion texnologiyalarda foydalanish imkoniyatlari va yoʻllari asoslangan.

### **Mavzuga doir adabiyotlar tahlili**

Turizm va unga yondosh sohalarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish XX asrning soʻngi yillaridan boshlab rivojlana boshladi. Aynan shu davrdan koʻplab olimlar tomonidan turizmدا innovatsion texnologiyalarni joriy qilish boʻyicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijlik olimlardan U. Gretzel, M. Sigala, Z. Xiang, Ch. Ko tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarga koʻra, soʻnggi bir necha yil ichida turizm industriyasiga axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi yutuqlarning, jumladan, internetning turizm sohasiga juda kuchli taʼsir oʻtkazishi asoslangan. Shu sababli ular turistik manzilgohlarga mijozlarni, yaʼni turistlarni jalb qilishda yangi strategiyalaridan foydalanish zarur deb hisoblashadi[3].

Portugaliyalik olimlar N. Matos, J. Mendes va P. Valle, axborot texnologiyalarning rivojlanishi turizm sohasini faqatgina xizmat sifatida emas, balki turistik mahsulot darajasida qabul qilinishini asoslab berdilar[4].

Turkiyalik mutaxassis K. Chinar bugungi kunda mobil texnologiyalar asosidagi innovatsion texnologiyalar isteʼmolchilarga yaʼni turistlarga turistik mahsulotlar uchun talabni shakllantirish, ehtiyojdan kelib chiqib oʻzgartirish va sotib olishni taʼminlashda, hamda xizmat koʻrsatish jarayonlarini boshqarish va tarqatish vositalarini taqdim etish orqali turistik sanoatning globallashtirishini qoʻllab-quvvatlash uchun imtiyozlar taqdim etadi deb hisoblaydi[5].

J. Saura esa raqamli texnologiyalarning zamonaviylashuvi raqamli marketingni rivojlanishiga hamda Internet orqali sotuv, bronlashtirish, mahsulotlarni sotuvini qulay qilishga imkoniyat yaratib berganligini taʼkidlaydi. Unga koʻra, bugungi kunda Internetga bogʻlangan elektron qurilmalardan sayohat uchun qoʻllanmalar, GPS yoki interaktiv kitoblar kabi turli xil ilovalardan foydalangan holda odamlarning dunyo boʻylab sayohatlarini tashkil qilish va amalga oshirishda yordam berish uchun doimiy ravishda foydalanilmoqda[6].

Rossiyalik mutaxassis Y. Konovalova esa turizm sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish jihatiga quyidagicha yondashadi: turizmdagi innovatsiyalarni sohada ijobiy oʻzgarishlarga olib keladigan, sifat jihatdan yangilikka ega boʻlgan tizimli hodisalar deb atash mumkin. Innovatsion jarayon turizm bozori va mijozlarning qoniqish darajasi va asosan turistik tashkilotlar va turli darajadagi hukumatlar tomonidan qoʻshma qarorlar qabul qilish orqali shakllantiriladi. Uning fikricha, turizmga innovatsiyalarning joriy etilishiga: mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, ijtimoiy holat, aholi, milliy qonunchilik, shuningdek, hukumatlararo va xalqaro shartnomalar kabi omillar bevosita taʼsir qiladi.

Shuningdek, u turizmga innovatsiyalarni joriy etishning quyidagi sabablarini ajratib koʻrsatgan: koʻp sonli klassik yoʻnalishlarning haddan tashqari toʻyinganligi; kirish turizmi bozorining muhim ulushini yoʻqotish xavfi; raqobat va takliflarning oʻsishi; axborot texnologiyalarini qoʻllash sohasini kengaytirish, texnologik inqilob; taklif miqdorini kamaytirish hamda iqtisodiyotida talab miqdorini koʻpaytirish; mahsulotlarning yangi bozorini izlash va joriy etish kabilar[7].

Mahalliy olimlar D. Aslanova va B. Safarovlar innovatsiyaning sababi va muqarrarligi insoniyatning yangilikka boʻlgan doimiy intilishida deb hisoblaydi. Innovatsiyalar ehtiyojlar va taraqqiyot bir-biri bilan toʻqnash kelgan muhitda shakllanadi, innovatsiyalarni boshqarishning vazifasi jamiyatning yetuk ehtiyojlarini amalga oshirish hamda moddiylashtirishdir. Ular innovatsiyalarni moliyalashtirish nafaqat davlat tomonidan balki, viloyat budjetlari mablagʻlari hisobidan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi deb hisoblaydilar:

- maqsadli dasturlar doirasidagi loyihalarni, davlatning tashqi qarzlari doirasida moliyalashtirish;
- yuqori samarali innovatsion va investitsiya loyihalarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlashdir[8]

Iqtisodchi olim A. Norchayev xizmat ko'rsatishda raqamli iqtisodiyot – yangi ishlab chiqiladigan yoki joriy qilinishi lozim bo'ladigan jarayon emas, bu turizmda innovatsion texnologiyalarni turistlarning kundalik hayotiga joriy etish orqali mavjud xizmatlarni yangicha ko'rinishga o'tkazish deb hisoblaydi[9].

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarda turizmدا innovatsion texnologiyalarni qo'llanishiga turlicha yondashilgan bo'lib, ularning barchasida zamonaviy texnologiya yoki yondashuvdan foydalanish soha rivoji uchun ijobiy ta'sir etishi asoslangan. Ammo, hozirgi vaqtda hududlarning turistik imkoniyatlaridan yanada samarali tashkil etishda mobil innovatsion texnologiyalarni va dasturiy ta'minotlarni rivojlantirishga doir jihati yetarlicha yoritilmaganligi ushbu tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda turizm sohasida innovatsion texnologiyalarni qo'llanishi yuzasidan mavjud bo'lgan konsepsiyalar o'rganib chiqildi. Mavzuga doir adabiyotlarni tahlil qilishda mutaxassislarning yondashuvlari ўрганилди, tahlil jarayonida sohada amalga oshirilayotgan ishlar taqqoslandi hamda farqli jihatlari yoritildi. Xalqaro statistik ma'lumotlardan foydalanilgan holda, dunyo bo'ylab mobil texnologiyalar bilan qamrov darajasi shiddat bilan borayotganligi asoslandi. Dunyo va O'zbekiston o'rtasida mobil operatsion tizimlardan foydalanuvchilar o'rtasida solishtirma tahlil amalga oshirildi. Turistlarga mo'ljallangan mobil ilovalar foydalanish yo'nalishiga qarab guruhlandi.

### **Tahlil va natijalar**

Innovatsion axborot texnologiyalaridan foydalanish har qanday soha uchun ijobiy ta'sir o'tkazadi. Turizm sohasida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar turistik kompaniya, sug'urtalovchi, transport kompaniyasi, sayyohlik byurosi, mehmonxonalar, umumiy ovqatlanish korxonalarini kabi sohaga tegishli barcha subyektlar faoliyatini zamonaviy tarzda amalga oshirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu texnologiyalardan foydalanish iste'molchiga Internet orqali xizmat tanlash imkonini bera oladigan xizmatlardan ya'ni axborot ko'rinishidagi turizm mahsulotlarini yaratishdan iborat. Bu holat esa hozirgi raqamlashtirish jarayoni shiddat bilan ketayotgan davrda kompaniyalar uchun raqobatbardosh mahsulot, narxni shakllantirish, investitsiyalardan foydalanish va sotish siyosatini kabi muhim jarayonlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

- Turizm sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yoki umuman innovatsion faoliyatni amalga oshirish hukumat tomonidan belgilab berilgan yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi va ular quyidagicha tasniflanadi:


- hududlarda maqsadli dasturlarni amalga oshirish uchun mablag'lar ajratish;
- sayohatchilarga o'z xizmatlarini bepul ko'rsatadigan va mahalliy aholining turizm sohasida bilim olishiga hissa qo'shadigan axborot markazlari tarmog'ini yaratish;
- xizmat ko'rsatish hamda iqtisodiyotning turdosh tarmoqlarida qo'llaniladigan ilmiy ishlanmalarni joriy etish uchun grantlar, subsidiyalar va investitsiyalar shaklida moliyaviy yordam ko'rsatish[10].

Yuqoridagi kabi innovatsiyalarni joriy etishga mo'ljallangan yo'nalishlar to'g'ridan-to'g'ri ularni moliyaviy ta'minlashni nazarda tutadi. Sohada yangi texnologiyalardan qo'llashda, tajriba va malakaga ega bo'lgan mutaxassislar, texnologiyadan foydalanish jarayonida unga texnik xizmat ko'rsatish, uning imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan tahlillarni amalga oshirish zarurligini belgilaydi.

Inovatsion jarayon va texnologiyalardan samarali foydalanish soha yoki tarmoq imkoniyatlaridan samarali foydalanish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarga yechim berishi bilan ham xarakterlanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, turizm sohasida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning qulayliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- turistlar tomonidan turistik xizmatlarga sarf etiladigan pul miqdorlari kamayadi (masalan, oldindan mehmonxonani bronlash, aviabilet);
- turistik xizmatlar (turpaketlar va turmarshrutlar) haqida ko'proq, tezroq hamda sifatli ma'lumot olish imkoniyati paydo bo'ladi;
- raqamli dunyodagi turistik xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta bo'ladi;
- turistlar fikri (feedback) ni tez olish hisobiga turmarshrutlar va xizmatlarning kamchiliklarini bartaraf etish va ularni yanada rivojlantirish imkonini beradi;
- xizmat ko'rsatish tezroq, sifatliroq, qulayroq hamda kam xarajat talab etadigan darajada bo'ladi[9].

Butun dunyoda mobil texnologiyalarning rivojlanishi va keng tarqalishi tez sur'atlarda ketmoqda va bu jarayon kelajakda ham barqaror tarzda rivojlanishi prognoz qilinmoqda. Mobil texnologiyalarni jadal rivojlanayotganligi, turizmning ko'pgina tarmoqlarida uning iste'molchilar uchun innovatsion tajribalarni yaratish va turizm sanoatida yetkazib beruvchilar uchun barqaror raqobat ustunligini ta'minlashdagi rolini hisobga olish juda muhimdir[10]. Bu esa mobil texnologiyalardan eng zamonaviy variant bo'lgan – smartfonlardan foydalanuvchilarning sonini oshib borishida ham namoyon bo'ladi (1-rasm).




**1-diagramma. Dunyo bo'ylab smartfonlardan foydalanuvchilar soni (mlrd. birlikda)<sup>2</sup>**

Bugungi kunda dunyo aholisining 80 %idan ortig'i (6,5 mlrd.dan ziyod foydalanuvchi) o'zining shaxsiy smartfoniga ega. Shunday ekan, har qanday innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish yoki amalda tadbiq etishda mobil texnologiyaga mo'ljallangan muqobillarini ham yaratish muhimdir.

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarni tahlili shuni ko'rsatadiki, agar 2018 yilda dunyoda 5 mlrd dan sal ko'proq kishi smartfondan foydalangan bo'lsa, bor-yo'g'i 3 yil ichida bu ko'rsatkich 122, 8 foizga oshib, 6, 259 mlrd. Kishini tashkil qilgan. 2027 yilga borib dunyodagi 7,69 mlrd aholi smartfonlardan foydalanishi prognoz qilinmoqda.

Smartfonlar turizm vositasi sifatida ham keng ommalashmoqda. O‘zi istiqomat qiladigan hududidan boshqa manzillarga safarga chiquvchi sayyohlar uchun o‘zlari bilan olib yuradigan smartfonlardan foydalanish har tomonlama qulay. Sayohatchilar uchun smartfonning qulayligi fotokamera, GPS, videotasvirlar yozish, ijtimoiy tarmoqlardan bevosita foydalanish imkoniyatlarini bitta qurilmada mavjudligida namoyon bo‘ladi.

Shundan kelib chiqib, turizmga mobil texnologiyalarning ta‘siri juda yuqori ekanligini ta‘kidlash mumkin. Mobil aloqa vositalaridan foydalanish turizm sohasida yangi tushuncha va yo‘nalishlarni paydo bo‘lishiga olib keldi (2-rasm).




**2-rasm. Turizmning inovatsion texnologiyalari asosidagi ko‘rinishlari<sup>3</sup>**

2-rasmda tasvirlanganidek, turizmdagi yangi yo‘nalishlar asosini innovatsion texnologiyalar tashkil etganligi bois, innovatsiyalarda yuz beradigan o‘zgarishlar sohani rivojlanishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Innovatsiyalar bevosita turistik industriya imkoniyatlarini yanada kengroq shakllanishiga imkoniyat yaratib beradi.

Turizmga mobil texnologiyalarni rivojlanishi avvalambor, uni boshqa texnologiyalar bilan qay darajada uyg‘unligini namoyish etishni, ikkinchidan, ushbu texnologiyalar turizm va ijtimoiy sohaga ta‘sirini ko‘rsatish va uchinchidan, yondosh (logistika, transport, kommunikatsiya va h.k.) tarmoqlar bilan hamkorligini o‘rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlarni olib borish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bu esa, shuningdek, sohaning istiqbolini belgilashda uning rivojlanish darajasi va unga ta‘sir etuvchi yo‘nalishlarni ham tahlil qilish zarurligini namoyon etadi[10]

Yuqorida qayd etilganidek, mobil texnologiyalarning rivojlanishi turizm sohasi uchun ham katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Dunyo bo‘ylab mobil texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar foydalanuvchilarni o‘zlarining mahsulotlari uchun kerakli bo‘lgan operatsion tizim (sistema)lar bilan ham ta‘minlashadi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra bugungi kunda mobil texnologiyalarda mavjud operatsion sistema (OS)larning asosiy qismi Android va iOS kabi sistemalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda (3-rasm).






**3-rasm. Dunyo bo‘ylab mobil dasturiy ta‘minotlardan foydalanish darajasi<sup>4</sup>**

3-rasm ma‘lumotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, jahonda mobil texnologiyalardagi OSlar bo‘yicha asosiy ulushni Android operatsion tizimi tashil etadi (umumiy o‘rtacha qariyb 71 %). Apple kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan va faqatgina o‘z mahsulotlariga o‘rnatiladigan Operatsion Sistema bo‘lgan iOS esa umumiy foydalanuvchilarning qariyb 27 %iga teng.

O‘zbekistonda mobil texnologiyalardan foydalanuvchilar miqdorini tahlil qiladigan bo‘lsak, holat biroz farqli ekanligini ko‘rish mumkin bo‘ladi (4-rasm).



**4-rasm. O‘zbekistonda mobil dasturiy ta‘minotlardan foydalanish darajasi**

Mamlakatimizda mobil OSning eng ko‘p tarqalgan dasturi Android OS hisoblanadi (umumiy foydalanuvchilarning 90 %idan ortig‘i). O‘rganilayotgan davr mobaynida foydalanuvchilar sonida keskin pasayish yoki o‘shish kuzatilmaganligi, Android OS asosida ishlovchi mobil qurilmalar uchun mo‘ljallangan imkoniyatlarni rivojlantirish yangi texnologiyalardan foydalanish ijobiy natijalar berishini ko‘rsatadi.

Demak, kelgusida ham mahalliy, ham xorijiy turistlar uchun mo‘ljallangan mobil texnologiya va mobil ilovalarni takomillashtirish shuningdek, turistlarga qulaylik yaratish maqsadida Android hamda iOS dasturiy ta‘minotlariga asoslanish kerak bo‘ladi.

Zamonaviy turistlar o‘z safarlarini amalga oshirish jarayonida ko‘plab ilovalardan foydalanishadi. Bunda ular, chiptalar xarid qilishda, joylashtirish vositasini bron qilishda, umuman destinatsiya haqida ma‘lumot olish va boshqa shu kabi savollarga javob topishda to‘g‘ridan to‘g‘ri zamonaviy ilovalardan foydalanishadi. Quyidagi jadvalda turistlarga mo‘ljallangan mobil ilovalar turlari va ularga mos ilovalar keltiramiz.

**Jadval**

**Turistlar uchun mo‘ljallangan ilovalar<sup>5</sup>**

T/r	Mobil ilova turlari	Mos mobil ilovalar
1.	Bronlashtirish dasturlari	Trivago, Booking.com, Tripadvisor
2.	Elektron xaritalar	Google maps, Yandex karti, 2GIS
3.	Tarjimon ilovalar	Google tarjimon, Яндекс Переводчик, TripLingo
4.	Navigatsion ilovalar	Waze, Яндекс.Navigator
5.	Aviaqatnovlar uchun ilovalar	App In The Air, Flio, Skyscanner

Mamlakatimizda AT va turizm sohasi mutaxassisilari bilan hamkorlikda bu kabi ilovalarni yaratishlari va rivojlantirib borishlari zarur. Yaratilgan ilovalar esa Play store va App store kabi platformalarga joylashtirishni taqozo etadi. Ilovalarni yaratishga milliy yondashuvni qo‘llash, hududlarning o‘ziga xos jihatlarni namoyon etuvchi xususiyatlarni aks ettirish nafaqat ichki turistlarni jalb etishda, balki xorijiy turistlarning yurtimizga qiziqishini orttirishiga ham ijobiy ta‘sir o‘tkazadi.

#### **Xulosa va takliflar**

Globalashuv sharoitida ma‘lumotlar almashinish jarayoni juda tez bo‘lishi turizmni rivojlantirish va salohiyatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhimligi isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylandi. Turistlarga qulaylik taqdim etishda mobil texnologiyalarni rivojlantirish va yangi imkoniyatlarni taqdim eta oladigan amaliy dasturlarni yaratish lozimligini ko‘rsatadi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish ijobiy natijalar beradi:

- Mahalliy va xorijiy turistlar foydalanishi uchun qulay bo‘lgan innovatsion texnologiyalarga asoslangan turistik infratuzilmani joriy etishga erishish;

- Mamlakat mintaqalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yangi turistik yo‘nalishlar ishlab chiqish mumkin bo‘lgan hududlarni aniqlashda sifatli foto va video materiallar, hududning geoaxborot ma‘lumotlari, 3D formatidagi ko‘rinishi va h.k ko‘rinishdagi innovatsion texnologiyalarini qo‘llash;

- Android va iOS platformalariga asoslangan dasturlarni ishlab chiqish. Ishlab chiqiladigan dasturlar nafaqat smartfonlar balki, turli boshqa gadjet (planshetlar, aqlli soatlar, laptoplar va h.k.)larga mo‘ljallanishini ta‘minlash va bilan shug‘ullanuvchi subyektlarni rag‘batlantirish;

- Turistlarga qulaylik yaratish uchun xorijiy kompaniyalar tomonidan yaratilgan turli mobil ilovalarga muqobil milliy ilovalarni yaratish. Mazkur ilovalarni turistlarni barcha ehtiyojlarini qondirishga moslashtirish;



- Yaratiladigan ilovalarda hududlar yoki ularda ko'rsatilayotgan turistik xizmatlar sifatini baholashga doir fikrlarni yig'ishni yo'lga qo'yish. Bu orqali turistik safarni amalga oshirishda yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarini soha rivoji uchun qo'llash.

Shunday qilib, turizmda innovatsion mobil texnologiyalarni rivojlantirish va ulardan keng foydalanish orqali mamlakat iqtisodiyoti ni o'sishini ta'minlashga imkoniyat yaratiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5611-sonli farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6165-son Farmoni
3. U. Gretzel, M. Sigala, Z. Xiang, Ch. Koo Smart tourism: Foundations and developments *Electronic Markets*, 25 (3) (2015), pp. 179-188
4. N. Matos, J. Mendes, P. Valle Revisiting the destination image construct through a conceptual model *Dos Algarves*, 21 (2012), pp. 101-117
5. K. Chinar. Role of Mobile Technology for Tourism Development. *The Emerald Handbook of ICT in Tourism and Hospitality*. ISBN: 978-1-83982-689-4.
6. J.R. Saura Using data sciences in digital marketing: Framework, methods, and performance metrics *Journal of Innovation and Knowledge*, 1 (2020), 10.1016/j.jik.2020.08.001
7. Коновалова Е. Е, Калинин А.А., Карпова А.А. Инновационные технологии управления и регулирования сферы туризма и гостеприимства. научный журнал Вестник ассоциации вузов туризма и сервиса Том 14. 2020 / №2 (2)
8. Асланова Д.Х. Роль инноваций, и их значение в инвестициях на рынке туристских услуг в Узбекистане / Д.Х. Асланова, Б.Ш. Сафаров, А. Хайруллаев // Экономика и бизнес: теория и практика. – 2016. – №3. – С. 18-22
9. A. Norchayev. Turizmda raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy qilish yo'nalishlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2020 yil
10. Chen, R. Lav, Sh. Xu, M. Zang Bibliometric and Visualized Analysis of Mobile Technology in Tourism 3rd International Conference on Tourism Research 2020. <https://doi.org/10.3390/su12197975>
11. Nabiev, D. K., & Panjievna, E. G. (2021). Actual issues on autonomy management in higher education. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.1 Economical sciences)
12. G. Erkayeva, R. Vayskulov. Mintaqaviy turizmni rivojlantirishda geoaxborot texnologiyalarning ahamiyati. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 1/2022, yanvar fevral (№ 00057)
13. Ismatullaev, J. (2021). Mintaqalarda pandemiya inqiroziga qarshi boshqaruvni qo'llash zarurati va xususiyatlari. Архив научных исследований.
14. <https://www.statista.com>
15. <https://adamosoft.com>
16. <https://gs.statcounter.com>